

Bolalar Muqaddas Kitobi  
Tasvirlab beradi



Rut:  
Sevgi  
hikoyasi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:  
Bible for Children [www.M1914.org](http://www.M1914.org)


©2017 Bible for Children, Inc.  
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz  
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.



Agar barcha o'tgan ajdodlaringizni ko'rganingizda, ular qanday odam bo'lgani juda qiziq bo'lsa kerak. Isoning ajdodlaridan biri Mo'ablik, butlarga sig'inadigan Rut ismli ayol edi.



Rutning hikoyasi Shamshondan keyingi vaqtdan boshlanadi. O'sha vaqtlar odamlar Xudoga itoat etmay qo'yishgandi. Yerda ochlik boshlangandi. Meva va o'simliklar hosil bermay qo'ygandi.



Odamlar esa ochlikdan azob chekishar edi.



Elimalek ismli odam oilasi bilan oziq-ovqat izlab, Baytlahmni tark etdi. U odamlari butlarga sig'inadigan Mo'ab yurtida joylashdi.



Mo'ab  
yurtida ham  
Elimalekka oson bo'lmadi.



Bir oz vaqt o'tib, o'zi  
ham ikki o'g'li ham vafot etishdi.



Uning  
xotini Naima ikki  
kelini Rut va Orpa  
bilan



yolg'iz qolib ketdi. Ikki  
kelin ham Mo'ablik edi.



Beva qolgan Naima uning yurtiga Xudo non berganini eshitdi. U qaytib ketishga qaror qildi.





U ikki keliniga o'z  
yurtlarida qolib, boshqa  
turmush qurish  
kerakliklarini  
taklif qildi.



Orpa ota-onasining uyiga  
qaytib ketdi. Lekin qaytishga Rut  
rozi bo'lmadi. U qaynonasi  
Naima bilan qolishini  
xohladi.



Naimaning oldingi dugonalari u  
Baytlahmga qaytib kelganidan juda  
xursand bo'lishdi.  
Ammo Naima endi  
uni Naima, deb  
emas, balki  
Musibat, deb  
atashlarini  
istadi.









Chunki uning  
boshiga ko'p  
qayg'u-alam  
tushgandi.  
Rutdan boshqa  
Naimani hech  
kimi yo'q edi.



Rut oldin butlarga  
sig'inar edi, ammo endi  
u Haqiqiy Tirik Xudoni  
bilib oldi. U non topish  
va qaynonasini boqish  
uchun ko'p ishlardi.



Har kuni erta  
sahardan to  
kechgacha Rut  
dalada o'rimdan  
qolgan bug'doyni  
yig'ardi.





Dala ho'jayini Bo'az  
Rut haqida ko'p yaxshi  
gaplarni eshitdi. Bo'az  
ishchilariga dalada  
ko'proq bug'doy  
qoldirishlarini  
buyurdi.  
Bora-bora u Rutni  
yaxshi ko'rib  
qolayotgan edi.





Bo'az haqida Rut  
qaynonasi Naimaga  
aytib berdi. Naima  
buning uchun  
Xudoga hamdu  
sano aytdi.  
Axir Bo'az  
ularning  
qarindoshi  
edi.







Vaqt o'tib, Bo'az Rutga  
uylanmoqchi bo'ldi.  
Ammo Naima va Rutga  
Bo'zadan ham yaqin  
qarindosh bor edi.





U Elimalekdan qolgan yerni olishni istardiyu, lekin Rutga uylanishni istamasdi. Qonun esa bu ikkisini ajratmas edi.



U vaqtlarda odamlar kelishuvdan keyin qo'l siqishmasdi. Ulardan biri olomom oldida etigini yechib, ikkinchisiga berishi kerak edi.



Shunday qilib,  
Bo'az Rutga uylandi.






Bo'az va Rut o'g'il  
ko'rishdi. Uning  
ismini Obid  
qo'yishdi. Obid  
payg'ambar va  
shoh Dovudning  
katta bobolaridan  
biri bo'ldi.



Lekin bundan ham a'lorog'i Obid Iso  
Masihni o'tgan ajdodlaridan biri edi.  
Iso Dovud naslidan kelib chiqdi. U  
Shoshlar Shohi, odamzotning  
Najotkori  
bo'ldi.



Rut: Sevgi hikoyasi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Rut

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.





Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga  
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,  
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun  
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men  
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot  
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,  
men Senga itoat qilishim uchun va Sening  
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har  
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

